

## O'ZBEK TILIDA "RANG + NARSA" KONSTRUKSIYALI QO'SHMA SO'ZLAR DERIVATSIYASI

**Sultonova Ruxsorabonu Axmatovna**  
*Sharof Rashidov nomidagi SamDU*  
*Markaziy Osiyo xalqlari tillari va*  
*madaniyati instituti 4-kurs talabasi*

**Anotatsiya:** "Rang+narsa" modeli o'zbek tilida juda faol model bo'lib, u nafaqat narsaning rangini, balki uning turi va sifatini ham bildiradi. Bu modeldagi rang komponentlari (oq, qora, ko'k, yashil va h.k) ko'p hollarda o'zining rang ma'nosini yo'qotib, ko'chma ma'nolar hosil qiladi. Masalan, o'simlik va hayvonot olami nomlarida (botanika va zoologiya) rang so'zlari turlarni bir-biridan ajratishga xizmat qilsa, antroposentrik birliklarda turlicha ma'no bo'yoqlarini beradi. Maqolada ushbu qo'shma so'zlarning oddiy so'z birikmalaridan farqi va ularning tilda bitta so'z sifatida shakllanish yo'llari misollar bilan isbotlanadi. *Tadqiqotning maqsadi:* Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o'zbek tilida "rang+narsa" qolipi asosida yasalgan qo'shma so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berishdir. Tadqiqotda rang bildiruvchi so'zlar qanday qilib o'zining asl ma'nosidan uzoqlashib, yangi nomlar hosil qilishi va ularning ma'no o'zgarish darajasi o'rganilgan.

**Metodologiya:** Maqolani yozishda tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot materiallari sifatida o'zbek tili izohli lug'atlari va ilmiy asarlardan ma'lumotlar bilan mustahkamlandi. To'plangan so'zlar ularning yaxlit bitta so'zga aylanish (leksikalizatsiya) darajasiga ko'ra guruhlariga ajratildi.

**Tayanch so'zlar:** *qo'shma so'z, so'z yasalishi, sifat, ot, rang komponenti, ma'no ko'chishi, kompozitsiya, leksikalizatsiya, metafora, metonimiya, terminologiya.*

**Tadqiqotlar natijasi.** Dunyo xalqlari madaniyatida ranglar nafaqat tashqi olamning jilosini, balki insoniyatning boy ma'naviy olami va dunyoqarashini ham aks ettiradi. B.Berlin va P.Kaylarning gipotizasiga ko'ra, barcha tillarda oq va qoraranglarni anglatuvchi atamalar mavjud. Rang ifodalovchilar eng kichik miqdori esa – ikkita. Olimlar rang ifodalovchi so'zlarning asosiy rivojlanish sxemasini ishlab chiqishgan: avvalo oq va qora ranglarni ifodalovchi nomlar, so'ng ularga qizil rangini ifoda etuvchi nomlar, keyin yashil va sariq, undan so'ng esa ko'k va oxirida jigar rangni ifoda etuvchi nomlar qo'shilgan. Bu – ranglar paydo bo'lishi va rivojlanishi barcha tillar uchun universal sxemadir. [Qorabekova.G.F. *Frazeologik birliklarda rang komponentining lingvokulturologik xususiyati*] Har bir millat o'zi yashab turgan iqlim, muhit va madaniy hayotdan kelib chiqib, ranglarni turlicha idrok etadi. Shu sababli, tilshunoslikda ranglar bilan bog'liq birliklarni o'rganish, nafaqat so'z yasalishi, balki

shu tilda soʻzlashuvchi xalqning milliy tafakkurini tushunish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻzbek tilshunosligida ham rang bildiruvchi soʻzlar leksik-semantik tizimning eng faol qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oʻzbek tilining soʻz boyligini boyitishda qoʻshma soʻzlar, xususan, "rang+narsa" modelidagi konstruksiyalar yetakchi oʻrin tutadi. Bu kabi birliklar tildagi tejamkorlik qonuniyatiga muvofiq, murakkab tushunchalarni ixcham shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, tabiatda uchraydigan oʻsimliklar (fitonimlar) va hayvonlar (zoonimlar) dunyosini nomlashda rang komponenti tabaqalovchi asosiy belgi boʻlib keladi. Bunda "oq", "qora", "koʻk", "sariq" kabi ranglar shunchaki predmetning rangini koʻrsatib qolmay, uning turi, sifati va hatto xalqona ramziy maʼnolarini ham oʻz ichiga oladi. Lekin shuni taʼkidlash joizki, "rang+narsa" modelidagi har qanday birikma har doim ham oddiy soʻz birikmasi hisoblanavermaydi. Ularning koʻpchiligi vaqt oʻtishi bilan maʼno koʻchishi (metafora va metonimiya) natijasida bitta turgʻun tushunchaga, yaʼni qoʻshma soʻzga aylangan. Masalan, "koʻkchoy" yoki "oqsoqol" kabi birliklarni tahlil qilganimizda, ulardagi rang komponentining birlamchi lugʻaviy maʼnosi biroz soʻnganini va yangi semantik yaxlitlik hosil boʻlganini koʻramiz.

"Rang + narsa" qolipidagi birliklarda rang komponenti aksariyat holatda oʻzining birlamchi denotativ maʼnosidan, rang bildirishdan uzoqlashadi. Bu jarayonni tilshunoslikda leksikallashuv deb ataymiz. Masalan, *oqsoqol* soʻzi. Bu yerda rang (oq) va tana aʼzosi (soqol) birlashib, rangga umuman aloqasi boʻlmagan "hurmatli yoshi ulugʻ inson" yoki "mahalla raisi" maʼnosini ifodalamoqda. Bu yerda komponentlar maʼnosi butunlay birlashib ketgan. Bundan tashqari, oʻzbek tilida koʻplab tillarda kuzatilganidek oq, qora ranglaridagi dominantlik Berlin va Kaylar nazaryasidagi rang evolutsiyasiga toʻla mos keladi. Farqli jihati shundaki, oʻzbek tilida *koʻk* komponenti ham fitonimlar, ham osmon sferasi uchun universal yasaliş asosi boʻlib xizmat qiladi. Masalan, *koʻkbel* - *zool. ayn. Qizilbosh, bot. Koʻkbosh* - Diametri 3–5 sm li koʻkish sharsimon toʻpguli boʻlgan mu rakkabguldoshlar oilasiga mansub bir va koʻpyillik tikanli oʻt oʻsimlik. *Biz 20*

*botmon* – 160 pud *koʻkboshni*, har bir *botmonini* 5 tangadan hisoblab, uning [togʻamning] qarzigʻa berdik. S.Ayniy, Esdaliklar.

*Koʻkgul*- *bot. Govzabonguldoshlar oilasiga mansub, togʻda oʻsadigan koʻpyillik oʻt. Ammo qurgʻur echki bu doʻqdan hayiqmadi ham, endi quyosh tigʻi yalagan chuchmomalardan, qorabosh-u, koʻkgullardan saralab kavshanib ketaverdi. A.Chimirzayev, Yolgʻiz kabutar.*

*Koʻkkallapoʻsh* - *bot. Shakli dumaloq yoki biroz yassi, sirti oqish, baʼzan yashil, tilim-tilim, toʻrsiz, eti oq handalak navlaridan biri. Qishlogʻimizda qovunchi Hasanbobo boʻlardir. Umri polizda oʻtdi. Tilni yorar "boʻrikalla", "koʻkkallapoʻsh", "bosvoldi"larni eshagining xurjuniga solib, tekinga hamqishloqlariga arqatib chiqardi. Sh.Shernazar, Oqibat koʻchalarida nima gap?!*

*Ko'kmaraz - bot.* Donli ekinlar bilan birga o'sadigan, zaharli alkaloidga ega bo'lgan o'simliklardan biri. *Yaxshi tozalanmagan bug'doy va arpada ko'kmaraz o'simligining urug'i ham qoladi.* "Fan va turmush".

*Ko'knor - 1* Ko'saksimon hosili ichida mayda ko'kish urug'i bor, tanasida sutshira yetishadigan bir yillik va ko'pyillik o'simlik. *Said Jalolxon qaytib kirdi, bor tovushi bilan baqirdi: -Hamma yerlaringga ko'knor ektiraman!* A.Qahhor, Bashorat. **2** Shu o'simlikning hosilidan ivitib, ezib tayyorlanadigan, kayf beradigan ichkilik. [Marayim] *Kirmagan ko'cha qolmadi: nayakini o'rgandi, qoradori yedi, takyalarga kirib, ko'knor ichdi.* M.Ismoilijon, Farg'ona t. o.

*Ko'knorixayol -* Aqlga to'g'ri kelmaydigan, ro'yobga chiqishi mumkin bo'lmaydigan puch xayol. *Ko'knorixayol qilmoq.*

*Ko'kno'xat - bot.* Dukkaklilar oilasiga mansub bir yillik va ko'pyillik o'simliklar turkumi, dukkakli don va sabzavot ekini. *O'zbekistonda ko'kno'xat oraliq ekin va ko'kat o'g'it sifatida yetishtiriladi.* "O'zME". [O'TIL 2-jild 977-979] kabilar shular jumlasidandir.

Oq so'zi bilan bog'liq holda :

Oqbilak-Qo'lini sovuq suvga urmaydigan, faqat o'ziga oro beradigan (ayol haqida). [Morti:] *Bilsam, asilzoda va oqbilak xonimchalar gilyotin surati tushirilgan sumkalar tutib yurishganmish!* X.Do'stmuhammad, Jodi.

Oqbosh-Bo'yi yarim metrcha keladigan, serbarg, mayda oq to'pgulli yovvoyi o't. *Yerning bor bisoti – oqbosh, qamish, yantoq.* G.Nurullayeva, Yurak yonmog'i kerak.

Oqko'ngillik- Yuragi, qalbi tozalik, sofdillik; o'zgalarga yomonlik tilamaslik, beg'arazlik. *To tirik ekan jonim ko'zgudek do'st izlarman, Oqko'ngilligi birlan ko'nglima yoqar ko'zgu.* E.Vohidov, Muhabbat. [O'TIL. 3-JILD; 505-506] va h.k

**Xulosa.** O'zbek tili leksik qatlamida "rang+narsa" modeli qo'shma so'zlarni struktur-semantik va etnolingvistik jihatdan tadqiq etish natijasida mazkur tizimning nafaqat lisoniy, balki chuqur madaniy-tarixiy asoslarga ega ekanligi isbotlandi. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bu turdagi qo'shma so'zlar shunchaki sifatlashgan birikmalar emas, balki tilning tejamkorlik qonuniyati va nominativ ehtiyojlari asosida shakllangan yaxlit leksik birliklardir.

Birinchidan, rang komponentlarining derivatsion faolligi tahlil qilinganda, "oq" va "qora" ranglarining ustuvorligi ko'zga tashlanadi. Bu holat turkiy xalqlarning olamni idrok etishidagi qadimiy dualistik (yorug'lik-zulmat, ijobiylik-salbiylik) qarashlari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, "ko'k" komponentining ham yashil, ham moviy sferalarni qamrab olishi, uning ildizlari "Ko'k Tangri" e'tiqodi va tabiatning uyg'onishi (hayotiylik) semalari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Bu esa "ko'k" so'zi ishtirokidagi fitonim va zoonimlarning nafaqat vizual belgi, balki muqaddaslik va baraka tushunchalari bilan oziqlanganini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, tadqiqot obyekti bo'lgan birliklarning aksariyati semantik transformatsiyaga uchragani, ya'ni leksikalizatsiyalashgani aniqlandi. Oqsoqol, qoraqurt, ko'kchoy kabi misollarda ko'ringanidek, rang komponenti o'zining birlamchi lug'aviy ma'nosini yangi denotativ tushuncha foydasiga "qurbon qilgan". Bu jarayon so'z birikmasining qo'shma so'zga aylanishidagi asosiy mezon bo'lib, lisoniy tejamkorlikni ta'minlaydi va tushunchaning tilda bitta birlik sifatida barqarorlashishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, "rang+narsa" modelining o'zbek terminologiyasi, xususan, botanika va zoologiya sohalarini boyitishdagi o'rni beqiyosdir. Ranglar bu yerda tabaqalovchi (differensial) o'tkazuvchi vazifasini bajarib, murakkab ilmiy tushunchalarni xalqchil va tushunarli tilda nomlash imkonini bergan. Bu esa xalq amaliy tajribasining ilmiy terminologiyaga ko'chishidagi asosiy vositadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1989. – 112 b.
2. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. – M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1990. – 685 b.
3. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 232 b.
4. Qorabekova G. F. Frazeologik birliklarda rang komponentining lingvokulturologik xususiyati // [Jurnal nomi yozilishi kerak], 2024.
5. Shoxistaxon X., Sayyora Y., Azizbek M. Qo'shma so'zlarning vujudga kelishi haqida // Central Asian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. – 2024. – Vol. 5. – No. 6. – B. 60-65.
6. Tursunov A. R. So'z yasalishning tarixiy bosqichlari // "Ilm-fan va innovatsiya" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2023.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild (E–M). – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2023. – 600 b.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild (N–Tartib). – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2023. – 600 b.